ERKINLIK VA TOTALITARIZM MAVZULARINING JAHON VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

Yusupova Mohigul Rustam qizi

Oriental universiteti, “Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Raxmatova Bahora Ibodulla qizi

Oriental universiteti Tillar-2 kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada erkinlik va totalitarizm mavzularining jahon hamda o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilish tarixi va asosiy bosqichlari atroflicha tahlil etiladi. Tadqiqotda G‘arb adabiyotshunosligi va o‘zbek milliy adabiyotshunosligidagi erkinlik va totalitarizm muammosini tadqiqining rivojlanishi, asosiy yondashuv va metodlarning shakllanishi, jadidchilik harakatining ta‘siri, sovet davrida ilmiy tadqiqotning cheklanishi hamda mustaqillik davridagi ilmiy yutuqlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Jorj Oruell va Abdulhamid Cho‘lpon ijodini qiyosiy o'rganishning hozirgi holati, metodologik asoslari va istiqbolli yo‘nalishlari ham bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: erkinlik, totalitarizm, adabiyotshunoslik, distopiya, jadidchilik, qiyosiy adabiyotshunoslik, antiutopiya, milliy uyg‘onish, badiiy tahlil, o‘zbek adabiyoti.

Аннотация. В данной статье подробно анализируется история изучения тем свободы и тоталитаризма в мировом и узбекском литературоведении. Рассматриваются этапы развития исследований, основные подходы и методологические концепции в западном и отечественном литературоведении, влияние джадидского движения, ограничение научных исследований в советский период, а также достижения литературоведения периода независимости. Также освещаются современное состояние, методологические основы и перспективные направления сравнительного изучения творчества Джорджа Оруэлла и Абдулхамида Чулпана.

Ключевые слова: свобода, тоталитаризм, литературоведение, дистопия, джадидизм, сравнительное литературоведение, антиутопия, национальное возрождение.

Annotation. This article provides a detailed analysis of the history of studying the themes of freedom and totalitarianism in world and Uzbek literary criticism. It examines the stages of development of these studies, key approaches and methodological concepts in Western and national literary criticism, the influence of the Jadid movement, the restriction of scholarly research during the Soviet period, and the achievements of the independence era. The current state, methodological foundations and promising directions for the comparative study of George Orwell and Abdulhamid Cho‘lpon’s works are also discussed.

Key words: freedom, totalitarianism, literary criticism, dystopia, Jadidism, comparative literary studies, anti-utopia, national awakening, artistic analysis, Uzbek literature.

Kirish. Erkinlik va totalitarizm muammosi adabiy tadqiqotning eng murakkab va ko‘p qatlamli yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. Bu mavzuning adabiyotshunoslikdagi rivojlanishi uzoq va boydir: qadimgi davr mutafakkirlarining axloqiy-falsafiy qarashlaridan boshlab, XIX–XX asr yirik nazariyotchilarining fundamental tadqiqotlarigacha bo‘lgan keng davrni qamrab oladi. Erkinlik tushunchasi falsafada o‘z-o‘zini boshqarishdan tortib, tashqi cheklovlardan xoli bo‘lish va o‘zini to'liq amalga oshirishgacha bo‘lgan keng qamrovni anglatsa, totalitarizm – insonning har bir harakatini, fikrni, tuyg‘uni ham nazorat qilishga intiluvchi siyosiy-mafkuraviy tizimni ifodalaydi.

Jahon adabiyotshunosligida erkinlik va totalitarizm mavzusini o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keskin rivojlandi. Bu davrda totalitar tuzumlar – natsistik Germaniya, Stalin Rossiyasi, fashist Italiyasi – o‘z dahshatli oqibatlarini ko‘rsatib bo‘lganligi, ikki jahon urushining insoniyat taqdiri va ma’naviy dunyosiga ta’siri adabiyotshunos olimlarni bu mavzuning yangicha tahlilini izlashga undadi. Bu mavzuning adabiyotshunoslikdagi tadqiqi nafaqat o‘tgan asrlar adabiyotini tushunish uchun, balki bugungi zamonaviy adabiy jarayonni ham to‘g‘ri baholash uchun muhim metodologik asos yaratadi.

Mazkur maqolaning maqsadi erkinlik va totalitarizm mavzularining jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishini bosqichma-bosqich ko‘rib chiqish, asosiy nazariy yondashuvlarni aniqlash hamda Oruell va Cho‘lpon ijodini qiyosiy tadqiq qilishning metodologik asoslarini belgilashdir. Mavzuning dolzarbligi shundaki, o‘zbek adabiyotshunosligida bu ikki buyuk adibni qiyosiy asosda yoritish hali to‘liq amalga oshirilmagan.

Jahon adabiyotshunosligida erkinlik va totalitarizm mavzularini ilmiy tadqiq qilish XX asrning o‘rtalaridan jadal rivojlana boshladi. Bu jarayonning shakllanishida totalitar rejimlar haqidagi ijtimoiy-falsafiy va siyosiy-nazariy asarlar muhim zamin yaratdi. Hannah Arendtning “Totalitarizmning kelib chiqishi”, Karl Popperning “Ochiq jamiyat va uning dushmanlari”, Mishel Fukoning “Nazorat qiling va jazolang” asarlari adabiyotshunoslikda ham metodologik tayanch vazifasini o‘tadi. Ayniqsa, Arendtning totalitarizm omillar tasnifi – ommaviy jamiyat va atomlashuv, mutloq terror, mantiqiy izchillikka asoslangan mafkuradir. Keyinchalik, bu omillar barcha adabiy tadqiqotlar uchun analitik vosita bo‘lib qoldi.

G‘arb adabiyotshunosligida erkinlik va totalitarizm mavzuining badiiy asarlarda ifodalanishini o‘rganishda antiutopik (distopik) janr alohida diqqatga sazovor bo‘ldi. Lionel Trilling o‘zining “The Liberal Imagination” asarida G‘arb adabiyotidagi erkinlik g‘oyasining rivojlanishini demokratik va totalitar maydonlar kesishmasida ko‘rib chiqdi va shunday ta‘kidladi: “Erkinlik g‘oyasi – G‘arb adabiyotining markaziy o‘qi, barcha buyuk asarlar ana shu g‘oya atrofida qurilgan”. Irving Howe “Politics and the Novel” tadqiqotida siyosat va adabiyot aloqasini, xususan totalitarizm muammosini badiiy matnda tasvirlanish xususiyatlarini chuqur tahlil qildi. Howe ta’kidlaganidek, “XX asr romani – bu avvalo erkinlik va hokimiyat o‘rtasidagi ulkan to‘qnashuvning sahifalaridagi aksidir”.

Bernard Krik o‘zining “George Orwell: A Life” monografiyasida Oruell ijodini to‘liq biografik va siyosiy kontekstda tahlil etib, “1984” romanining antiutopik janrdagi o‘rni va totalitarizm qo‘shgan hissasini asoslab berdi. Krik yozadi: “Oruellning butun ijodiy hayoti totalitar tuzumning har qanday shakliga qarshi adolatli va halol kurashdan iborat edi. U nafaqat totalitarizmni tasvirladi, balki uning har bir mexanizmini – tilni, xotirani, sevgini, do‘stlikni qanday buzib yuborishini ko‘rsatdi”. Kumar Krishan o‘zining “Utopia and Anti-Utopia in Modern Times” tadqiqotida antiutopiya janrining tarixiy shakllanishini va erkinlik-totalitarizm munosabatini nazariy jihatdan tahlil qildi. Tomas Mojulen “The Cambridge Companion to Utopian Literature” asarida Oruell, Xaksli, Zamyatin, Bredberi asarlari misolida distopik adabiyotning erkinlik muammosini badiiy ifodalash usullarini qiyosiy tahlil qildi.

Ilmiy adabiyotda erkinlik va totalitarizm mavzusini o‘rganishda bir necha asosiy yondashuv shakllanganini qayd etish lozim. Tarixiy-siyosiy yondashuv erkinlik va totalitarizm tushunchalarini konkret tarixiy hodisalar kontekstida o‘rganadi. Falsafiy-antropologik yondashuv shaxs erkinligi va totalitar tizim munosabatini ekzistensializm, strukturalizm, poststrukturalizm nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Narratologik yondashuv erkinlik va totalitarizm mavzusining badiiy matndagi voqealar tizimi, qahramon xarakteri, kompozitsiya orqali ifodalanishini

o'rganadi. Qiyosiy-tipologik yondashuv esa turli milliy adabiyotlarda erkinlik va totalitarizm muammosining badiiy talqinini taqqoslab o‘rganadi.

Rus adabiyotshunosligida erkinlik va totalitarizm mavzusi sovet davrida bevosita o‘rganilishi imkonsiz edi. Biroq, Mixail Baxtin o‘zining “Dostoevskiy poetikasining muammolari” asarida ilgari surgan “polifoniya” nazariyasi aslida totalitar yagona haqiqatga adabiy qarshilik tushunchasini ifodalaydi. Baxtinning “Har bir ovoz o‘z haqiqatiga ega” tamoyili totalitar monologizmga qarshi qo‘yilgan kuchli nazariy pozitsiya sifatida talqin etiladi. Baxtin o‘z asarida ochiq dialogik fikrlash tizimini yoqlab chiqishi sovet mafkurasining bir ovozli, muqobili yo‘q haqiqat tizimiga norasmiy qarshilik belgisi edi. SSSR parchalanganidan so‘ng rus adabiyotshunosligida bu mavzu erkin tadqiq etila boshlandi. Aleksandr Soljenitsin “Gulag arxipelagi” asari orqali sovet totalitarizmining adabiy hujjatini yaratdi. Roy Medvedev, Dmitriy Volkogonov, Aleksandr Yakovlev singari tadqiqotchilar sovet totalitarizmining adabiyotdagi ifodasini ilmiy asosda tahlil qildilar. Bu asarlar sovet tajribasidan o‘tgan barcha xalqlar, shu jumladan o‘zbek adabiyotshunosligida ham muhim manba sifatida qabul qilindi va yangi tadqiqotlarga turtki bo‘ldi.

O‘zbek adabiyotshunosligida erkinlik va totalitarizm mavzularining tadqiq etilishi uch davriy bosqichni bosib o‘tdi. Har bir bosqich o‘ziga xos ilmiy yondashuv va metodologik xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Birinchi bosqich – jadidchilik davri (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Bu bosqichda erkinlik va totalitarizm muammolari bevosita ilmiy atamalar sifatida ko‘tarilmagan bo‘lsa-da, jadid mutafakkirlari o‘z asarlarida millat erkinligi, ma’rifat va mustabid tuzumdan qutilish g‘oyalarini kuchli badiiy ifoda orqali yoritdilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat kabi jadid mutafakkirlari nazarida millat erkinligi avvalo ilm va madaniyat orqali qo‘lga kiritiladi. Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanida Miryoqubning suhbatdoshidan aytilgan: «Bizning baxtsizligimiz – nodonligimizda, xolos. Millat uyg‘onsin, ko‘zini ochsin, o‘qisin, bilim olsin...» – jumlasi ana shu konsepsiyaning badiiy ifodasi hisoblanadi. Jadid mutafakkirlari uchun erkinlik birinchi navbatda milliy o‘zlikni anglash va ma’rifat orqali amalga oshiriladigan jarayon edi. Aynan shu nuqtada ular Oruell va G‘arb falsafasidagi “salbiy erkinlik” tushunchasiga o‘xshash, lekin undan farqli bo‘lgan o‘z konsepsiyasini “ma'rifiy erkinlik” g‘oyasini shakllantirib qoldilar.

Ikkinchi bosqich – sovet davri (1920–1991). Bu davrda erkinlik va totalitarizm mavzularini ochiq tadqiq etish mafkuraviy bosim tufayli imkonsiz edi. Biroq Hamid Sulaymon, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shjonov singari olimlar nozik badiiy-ilmiy shaklda o‘zbek adabiyotidagi zulm va erkinlik masalalariga murojaat qildilar. Xususan, Sharafiddinov Cho‘lpon ijodini totalitar bosim sharoitida o‘rganib, uning asarlaridagi milliy uyg‘onish g‘oyasini ilmiy jihatdan himoya qilishga harakat qildi. Botir Qosimov, Laziz Qayumov kabi olimlar jadid adabiyotiga yangicha nazar tashlab, erkinlik g‘oyasini o‘zbek klassik adabiyoti naznida o‘rganishga urindilar. Bu bosqichning o‘ziga xos xususiyati shundaki, olimlar bevosita totalitarizm atamasini ishlatmasdan, “feodal muhit”, “ijtimoiy ziddiyat”, “ozodlik intilishi” kabi atamalar orqali shu masalalarga murojaat qilishga muvaffaq bo‘ldilar.

Uchinchi bosqich – mustaqillik davri (1991-hozirgacha). Bu bosqichda erkinlik va totalitarizm mavzulari o‘zbek adabiyotshunosligida to‘liq ilmiy erkinlikda tadqiq etila boshlandi. Naim Karimov o‘zining “Cho‘lpon” va “XX asr o‘zbek adabiyoti” asarlarida jadidchilik harakati va sovet totalitarizmining o‘zbek adabiyotiga ta‘sirini atroflicha yoritdi. U shunday yozdi: “Cho‘lponning ulug‘vorligi shundaki, u xalqda *Vatan, Millat, Istiqlol* tushunchalarining teran ma’no kasb etishiga katta ta’sir ko'rsatdi. U xalqda hurriyat tuyg‘usini uyg‘otdi”. Dilmurod

Quronov “Ruhiy dunyo tahlili” va “Adabiyot nazariyasi asoslari” asarlarida erkinlik va totalitarizm muammosining badiiy talqiniga nazariy asoslar yaratdi. Umarali Normatov “Cho‘lpon va o‘zbek romani» tadqiqotida Cho‘lpon romanchiligidagi erkinlik g‘oyasini psixologik realizm nuqtai nazaridan tahlil qildi. Bahodir Karimov, Shuhrat Turdiyev singari tadqiqotchilar ham bu yo‘nalishda ko‘plab muhim ilmiy ishlarni amalga oshirdilar. O‘tgan o‘ttiz yil ichida o‘zbek adabiyotshunosligida erkinlik va totalitarizm mavzusini tadqiq qilish yangi metodologik usullar – qiyosiy adabiyotshunoslik, postkolonial nazariya, diskurs tahlili bilan boyidi.

Jorj Oruell va Abdulhamid Cho‘lpon ijodini qiyosiy o‘rganish hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligidagi yangi va istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Bu ikki adib o‘zlarining vatanlari, davrlari, badiiy uslublari va asarlari shakli jihatidan farq qilsa-da, ikkalasi ham XX asr totalitarizmining ramziy timsoliga aylangan, ikkalasi ham shaxs erkinligini eng asosiy badiiy va g‘oyaviy qadriyat sifatida himoya qilgan adiblardir. Mustaqqil tadqiqotchi sifatida ikkalasi ham o‘z davrining hukmron mafkuralariga – Oruell totalitar sotsializmga, Cho‘lpon esa Stalin o‘rnatgan boshqaruvga bo‘yin egmagan ijodkorlardir.

G‘arb adabiyotshunosligida Oruell “1984” romani asosan kuzatuv va nazorat, propaganda, tilning ideologik vazifasi, tarixni qayta yozish va shaxs ongining sindirilishi nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida esa Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romani ko‘proq milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik, ayol qismati, oila va jamiyat munosabatlari hamda realizm doirasida tahlil qilingan. Biroq bu ikki asarni erkinlik va totalitarizm mavzusi jihatida qiyosiy asosda yoritish hali to‘liq amalga oshirilmagan.

Qiyosiy o‘rganishda bir necha metodologik yondashuv qo‘llanilishi mumkin. Tarixiy-tipologik yondashuv ikki asarning yaratilgan tarixiy davrlari va ijtimoiy muhitining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlaydi. Qiyosiy-tipologik yondashuv syujet, kompozitsiya, qahramonlar tizimi, ramzlar va motivlar nuqtai nazaridan ikki asarni taqqoslaydi. Germenevtik yondashuv esa matnning tarixiy, madaniy va biografik kontekstda chuqurroq talqin qilinishini ta’minlaydi. Distopik tahlil usuli Oruell asarini antiutopik janr qonuniyatlari nuqtai nazaridan o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu metodlar kompleks tarzda qo‘llanilganda ikkala asardagi erkinlik badiiy ifodasining universal va o‘ziga xos tomonlari yorqin ko‘zga tashlanadi.

Erkinlik va totalitarizm mavzularining jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi tarixi boy va ko‘p qatlamlidir. G‘arb adabiyotshunosligida bu mavzu uzluksiz ravishda chuqur tadqiq qilingan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotshunosligida sovet davridagi mafkuraviy bosim sababli bu masala asosan mustaqillik davrida o‘z to‘liq rivojini topdi. Hozirgi davrda Oruell va Cho‘lponni qiyosiy o‘rganish nafaqat ikki adibning ijodini, balki G‘arb va Sharq adabiy-falsafiy tafakkurining totalitarizm va erkinlik haqidagi mushtarak va farqli jihatlarini ham yanada yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Xulosa. Nazariy tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, erkinlik va totalitarizm mavzularining adabiyotshunoslikda o‘rganilishi tarixi boy va ko‘p qatlamlidir. G‘arb adabiyotshunosligida bu mavzu uzluksiz ravishda chuqur tadqiq qilingan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotshunosligida bu masala asosan mustaqillik davrida o‘z to‘liq rivojini topdi. Ikkinchidan, o‘zbek adabiyotshunosligida erkinlik va totalitarizm mavzuining tadqiqida uch davriy bosqich – jadidchilik, sovet va mustaqillik davri – aniq ko‘zga tashlanadi. Har bir bosqich o‘ziga xos ilmiy yondashuv va metodologik xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Uchinchidan, Isayya Berlinning “salbiy” va “ijobiy” erkinlik tasnifi hamda Hannah Arendtning totalitarizm nazariyasi o‘zbek adabiyotshunosligida Oruell va Cho‘lpon asarlarini tahlil qilishda asosiy analitik vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin. To‘rtinchidan, Oruell va Cho‘lpon asarlarini qiyosiy tadqiq qilish nafaqat

ilmiy, balki ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, bu sohadagi ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cho‘lpon A. Asarlar. 4 jildlik / mas’ul muharrir N. Karimov. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – T. 2. – 384 b.
2. Cho‘lpon, A. Kecha va kunduz. – Toshkent.: “Ziyo nashr” nashriyoti, 2023. – 320b.
3. Karimov N. Cho‘lpon. – Toshkent: Fan, 1991. – 256 b.
4. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 512 b.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 428 b.
6. Sharafiddinov O. Ijodiyot haqiqati. – Toshkent: Fan, 1986. – 312 b.
7. Normatov U. Cho‘lpon va o‘zbek romani. – Toshkent: Fan, 2004. – 192 b.
8. Arendt H. The Origins of Totalitarianism. – New York: Harcourt, 1951. – 524 p.
9. Crick B. George Orwell: A Life. – London: Secker & Warburg, 1980. – 473 p.
10. Howe I. Politics and the Novel. – New York: Horizon Press, 1957. – 251 p.
11. Kumar K. Utopia and Anti-Utopia in Modern Times. – Oxford: Blackwell, 1987. – 506 p.
12. Orwell G. Nineteen Eighty-Four. – London: Secker & Warburg, 1949. – 328 p.
13. Rodden J. The Politics of Literary Reputation. – New York: Oxford University Press, 1989. – 412 p.
14. Trilling L. The Liberal Imagination. – New York: Viking Press, 1950. – 320 p.
15. Popper K. The Open Society and Its Enemies. – London: Routledge, 1945. – 431 p.
16. Berlin I. Two Concepts of Liberty. – Oxford: Clarendon Press, 1958. – 57 p.